



XORIJIY TILLARNI O'RGANISHDA BILINGUALLIKNING AHAMIYATI

Xasanova Ozodaxon Qurvonali qizi

*Farg'ona davlat universiteti, Nemis va fransuz tillari kaferdrasi
mudiri, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, (PhD)*

Mustafoyeva Saidaxon Juma qizi

Farg'ona davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: Maqolada xorijiy tillarni o'rganishda bilinguallikning ahamiyati haqida fikr yuritilgan. Birinchi til, monolingual, bilingual, multilingual, silmutan bilinguallik tushunchalari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: xorijiy til, bilingual, birinchi til, monolingual, multilingual, o'rganish jarayoni, xato.

Abstract: The article discusses the importance of bilingualism in learning foreign languages. Concepts of first language, monolingual, bilingual, multilingual, silent bilingualism are explained.

Key words: foreign language, bilingual, first language, monolingual, multilingual, learning process, error.

KIRISH

Tilni egallashni turli usullari farqlanadi. Masalan, birinchi til bola tug'ilgan vaqtdan uning atrofida so'zlashilayotgan til bo'lib, u ko'pincha ona tili deb nomlanadi. Lekin ona tili termini yuzasidan ham ba'zi tushunmovchiliklar kelib chiqishi mumkin, chunki ba'zan bolalarni til egallashida onasidan boshqa shaxs ham ishtirok etishi mumkin. Shuning uchun ba'zi olimlar ona tili terminining o'rniga *birinchi til* terminini qo'llashni tavsiya qilishadi. Bu termin neytral bo'lib, bu termin orqali faqat inson o'rganadigan birinchi til haqida gap boradi. Bundan tashqari bu tushuncha yordamida insonlarning yana bir qancha til o'rganishi mumkinligiga ishora qilinadi.

ASOSIY QISM

Insonlarni *monolingual*, *bilingual* va *multilingual* kabi guruhlariga ajratish mumkin. Agar bola tug'ilganidan boshlab ikki tilli muhitda ulg'aysa va har ikkala tilda gapira boshlasa, bilinguallik yoki ikki tillilik haqida gapirishimiz mumkin. Ba'zan oilada ota-ona boshqa tilda, farzand esa boshqa tilda gaplashadigan holatlar ham uchrab turadi. Bunday bilinguallik *simultan bilinguallik* deb nomlanadi⁵⁴.

Sukzessiv (ketma-ket) ikki tillilik tushunchasi ham mavjud bo'lib, bundan bola dastlab, aytaylik uch yoshga qadar bir tilda so'zlashadi. Uch yoshdan boshlab esa yana bir tilda gaplasha boshlaydi. Bunday holatni quyidagicha izohlash mumkin. Bolaning ota-onasi bir

⁵⁴ S.Ballweg und andere. Deutsch lehren lernen. Wie lernt man die Fremdsprache Deutsch. 2013. Munchen. S. 29



tilda gaplashadi, u boradigan bog'chada esa boshqa bir tilda muloqot qilinadi. Shu sababli bola ketma-ket ikki tilni egallashiga imkon yaratiladi.

Tilni egallash jarayoni yosh o'sishi bilan ortib boradi.

Inson hayoti davomida o'rganadigan keyingi tillarini chet tili yoki ikkinchi til tushunchasi bilan bog'lash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Aynan mana shu yerda yana "o'rganish" hamda "egallash" tushunchalari o'rtasidagi farq ko'zga tashlanadi. Odatda ikkinchi til haqida gapirilgandam bu tilni birinchi tildek kundalik muloqot muhitida o'rganish nazarda tutiladi. Chet tillarni esa odatda darslar yordamida o'rganish bilan, o'quv jarayonidagi o'rganish bilan bog'lanadi.

O'rganish haqidagi nazariyalar o'rganishning asosini tushuntirib berishga harakat qilsalar ham, ularda chet tillarni o'rganish borasida kam fikrlar berilgan. O'quvchilar chet tilini o'rganish jarayonida ko'p xatolarga yo'l qo'yadilar. Shu sababli quyida xatolar mavzusiga ham to'xtalib o'tishni ma'qul topdik.

O'qituvchi sifatida xatolarni to'liq bartaraf etish mumkin emasligini yaxshi bilamiz. Xatolarga turli insonlar tomonidan beriladigan ta'riflar ham xato tushunchasining keng qamrovli ekanligini ko'ratib turadi⁵⁵.

Masalan, til o'rganuvchilarimiz nemis tilini o'rganishni boshlashganida yangi lisoniy strukturalarni hamda so'zlarni tushunishadi va qo'llashadi. Ba'zida ular biz bilmaydigan, biz eshitmagan, o'qimagan so'zlarimizni ham qo'llashlari mumkin. Biz ularni eshitishdan xursand bo'lamiz. Ba'zida esa til o'rganuvchilarimiz tomonidan qo'llanilgan ushbu struktura noto'g'ridek ham tuyuladi. Agar xato yaxshilab analiz qilinsa, til o'rganuvchimiz ma'lum shaklni yod olgan bo'ladi, unga yondashgan holda yangi gaplar tuzishda esa xatoga yo'l qo'yadi, aynan shu holat uchun mos kelmaydigan so'zni qo'llagan bo'lishi mumkin. Lekin xatolar o'qituvchilarga til o'rganuvchilari tomonidan qaysi mavzu yaxshi o'zlashtirilgani, qaysinisi yana qayta ishlanishi kerakligini bilib olish uchun yaxshi yo'llanma bo'la oladi⁵⁶. Shunga ko'ra o'rganish uchun mavzularni tanlash imkoniyati yuzaga keladi.

Albatta bu fikr xato darsning markazida turadi degan fikrni bermasligi lozim. Bu yerda shunchaki, til o'rganuvchilar yo'l qo'yayotgan xatolarga qarab darsni tashkil qilish muhim ekanligiga urg'u berish kifoya.

Nativistik (millatchilik) yondashuvlarga ko'ra, tilni egallash bu insonning tug'ma qobiliyati hisoblanadi. Tilni egallash jarayoni mana shu tug'ma qobiliyatlarni ochib berishga xizmat qiladi. Ular tomonidan bildirilgan yondashuvni quyidagi fikrlarni o'qish yordamida tushunib olishimiz mumkin:

⁵⁵ O.Xasanova. NEMIS TILI DARSLARIDA XATOLAR BILAN ISHLASH MUAMMOLARI HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR //Integration Of Science, Education And Practice. Scientific-Methodical Journal. – 2022. – T. 3. – №. 3. – C. 304-308.

⁵⁶ Kleppin K. Fehler und Fehlerkorrektur. – Langenscheidt, 1998. – T. 19.



- Bolaning atrofini o'rab turgan til muhiti ba'zida yetarli bo'lmasligi mumkin, lekin shunga qaramasdan bolalar o'zlari hali hech ham eshitmagan lisoniy shakllarni ham qo'llay olishadi;
- Bolaning atrofini o'rab turgan til muhitida ma'lum xatolar mavjud, lekin bola ularni qo'llashda kamroq xatoga yo'l qo'yadi;
- Atrofidagi odamlar yoki ota-onasining salbiy fidbeklarisiz ham bolada tildan to'g'ri foydalanish ko'nikmasi shakllanadi, ularga kimningdir to'g'rilashlari shart emas;
- Bolalar o'rganayotgan til ham tizimga asoslanadi, ular tizim haqida tushunchaga ega bo'lmasalarda, ular qo'llayotgan jumlar allaqachon tizimli bo'ladi.

Bu yuqorida identifikatsiya gipoteziyasi haqida keltirilgan fikrlardan kelib chiqib, chet tillarni egallash bilan bog'liq qobiliyatlar ham tug'ma bo'ladi, degan xulosaga kelish mumkin.

Identifikatsiya gipotezasidan kelib chiqadiki, yangi o'rganilayotgan til birinchi tilni egallash mexanizmiga asoslanadi. Bunga asos sifatida insonning umumiy til egallashga qobiliyati haqidagi fikr bilan asoslashimiz mumkin. Bolalar tilni atrofidagi olam bilan bog'liq holda o'rganadi, ular biologik jihatdan ham o'zaro bog'langan. Bu mexanizmni boshqa tillarni o'rganishga ham joriy etish mumkin. Identifikatsiya gipotezasiga ko'ra har qanday keyingi tilni o'rganish birinchi tilni egallash bilan bog'liq bo'ladi. Yosh o'sishi bilan birga insonning tilni qanday usullarda yanada yaxshiroq o'rganish mumkinligi borasidagi psixik va kognitiv qobiliyatlari, tushunchalari ham o'zgarib boradi. Bundan tashqari til birinchi o'rinda muloqot vositasi sifatida foydalaniladi. Agar insonlarning birinchi tili muloqot ehtiyojini qondira olsa, ularga ikkinchi bir tilni o'rganish uchun boshqa motivatsiya kerak bo'ladi.

XULOSA

Xorijiy tillarni o'rganishdagi xatolar bartaraf etish mumkin bo'lmagan xatolar bo'lib, ular ham xuddi bola kichik yoshida tilni egallash jarayonida yo'l qo'yadigan xatolariga o'xshaydi. Shu sababli ham o'qituvchi bu xatolarni qabul qilishi kerak. Xorijiy tilni o'rganayotganlar deyarli bolalar birinchi tilni o'rganishda yo'l qo'ygan xatolari kabi xatolarni qiladilar. Bir ancha urinishlardan keyin esa strukturalarni to'g'ri qo'llay boshlaydilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Kleppin K. Fehler und Fehlerkorrektur. – Langenscheidt, 1998. – T. 19. 204 S.
2. Xasanova O. NEMIS TILI DARSLARIDA XATOLAR BILAN ISHLASH MUAMMOLARI HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR //Integration Of Science, Education And Practice. Scientific-Methodical Journal. – 2022. – T. 3. – №. 3. – C. 304-308.
3. Ballweg S. und andere. Deutsch lehren lernen. Wie lernt man die Fremdsprache Deutsch. 2013. Munchen. 200 S.

